

**NORMATIV FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING
ANALOGIYASI BO‘YICHA INDIVIDUAL-MUALLIFLIK
FRAZEOLOGIZMLARINI HOSIL QILISH**

Karimboyeva Nafosat Yunus qizi

o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada fransuz tilida frazeologik birliklarning individual-mualliflik transformatsiyalari va ularning pragmatik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shuningdek, normativ frazeologik birliklarning analogiyasi bo‘yicha individual-mualliflik frazeologizmlarini hosil qilish usuli tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** frazeologik birliklar, transformatsiya, nutqiy leksik-grammatik qayta o‘zgarishlar, ikkilangan aktuallashuv, pragmatik samara, ellipsis, pragmatik o‘zgartirish, leksema.*

***Аннотация.** В данной статье говорится об индивидуально-авторские трансформации фразеологизмов и их прагматические особенности во французском языке. Также анализируется метод создания индивидуально-авторских фразеологизмов по аналогии нормативных фразеологизмов.*

***Ключевые слова:** фразеологизмы, трансформация, лексико-грамматические изменения речи, двойная актуализация, прагматический эффект, эллипсис, прагматическое изменение, лексема.*

***Abstract.** This article talks about the individual-authorship transformations of phraseological units in the French language and their pragmatic features. It also analyzes the method of forming individual-authorship phraseologisms by analogy with normative phraseological units.*

***Key words:** phraseological units, transformation, speech lexical-grammatical transformations, double actualization, pragmatic effect, ellipsis, pragmatic change, lexeme.*

Kirish. Frazeologik birliklarning turli-tuman transformatsiyalarga uchrashi badiiy kommunikatsiya uchun xarakterlidir. Bu holda frazeologizmlarning qayd qilinganligi va barqarorligiga muallifning maqsadi va asarning butun tuzilishi sababli osongina o‘zgartirish kiritiladigan bo‘lib chiqadi. “Til iboralarga va oborotlarga qanchalik boy bo‘lsa, mohir yozuvchi uchun shunchalik yaxshi”, - deb ta'kidlar edi A.S. Pushkin.

Badiiy nutqda frazeologik birliklar har doim qo‘llaniladi va matn mazmuni bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Frazeologizmlarni qayta o‘zgartirishning xilma-xil usullari ularning o‘zlarini o‘rab turgan so‘zlar bilan yanada chambarchasroq qo‘shilib ketishiga ko‘maklashadi. Tahlil ko‘rsatadiki, badiiy kommunikatsiya muallif tomonidan ataylab amalga oshirilgan frazeologizmlar transformatsiyasining turli xildagi usullari va uslublari bilan to‘lib-toshib yotibdi. Quyidagilar eng samarali hisoblanadilar: frazeologik birliklarning ikkilangan aktuallashuvi, frazeologik birliklarning komponentlarini almashtirish, ellipsis, normativ frazeologik birliklar obrazining yoki mazmunining

qo'llanilishi, frazeologik birliklarni yangi ma'noviy mazmun bilan to'ldirish, yana shuningdek kamroq qo'llaniladigan, ammo samarali usullar: frazeologik birliklarni sinonimlar qatoriga keltirish, umumtil frazeologik birliklari bilan analogiya bo'yicha individual-mualliflik frazeologik birliklarini hosil qilish va boshqalar. Ushbu maqolada frazeologik birliklar transformatsiyalarining normativ frazeologik birliklar obrazining yoki mazmunining qo'llanilishi usuli haqida so'z yuritiladi.

Muallif tomonidan yangidan yasalgan iboralar, bizning fikrimizga ko'ra, ham umumtil frazeologik birligining ayrim elementlarini qo'llash bilan, ham uning butun strukturasi ishlatish bilan tuziladilar. Bular zukkolik bilan qilingan, hamma biladigan maqollar va matallar asosida qurilgan formulalardir. Yangi mazmun, eski shakl komponentlarining yangi so'z orqali ifodalangan material bilan yangi original aloqa – bularning hammasi qisqa, jonli, esda qoladigan hamda o'tkir iboraning yaratilishiga olib keladi. Masalan:

*Mais rare que j'avais déjà, en somme consenti dans le passé à un arrangement de famille, parce que le proverbe “**Qui ne dit rien, consent**” signifie en réalité “**Qui ne consent a rien le dit**”, parce qu'enfin, incapable de la remplacer je n'écartais pas Laure et m'efforçais de la payer de quelques gentillesse, aussitôt interprétées Mamette ne perdait pas l'espoir et, à la première occasion **redébobinait son fil blanc**.* [Hervé Bazin, L'huile sur le feu, p.25]

Predikativ frazeologik birlik – **Qui ne dit rien, consent** → **qui ne consent à rien le dit** ning ustalik bilan semantik “pishitilishi”, yana shuningdek mualliflik jumla ijod qilish – **redébobiner son fil blanc**, ya'ni **reprendre le fil de son discours**, yana bir bor isbotlaydiki, mulohazaning matni pragmatika uchun markaziy bo'lgan boshqa tushunchaning – nutq aktining qo'shimchaligida bo'ladi. Ularning o'zaro bog'lanishi – pragmatik tadqiqotning asosiy qismidir. Har qanday qimmatli mulohaza, bizning misolimizda, ta'kidlash, “Bu o'zi yaxshimi (yomonmi)?” degan savolni keltirib chiqarishi mumkin. Baho fonga qarab u yoki boshqa ma'no oluvchi “o'z-o'zidan (avtomatik ravishda) sozlanadigan” predikat bilan ifodalanadi. Bunday predikatlar xabarda maxsus maqsadning mavjudligi haqidagi fikrga olib boradi; yuqorida keltirilgan vaziyatda uylanish haqidagi suhbatni qayta tiklashga qaror qabul qilinishi bor. “Baholarning tili, - deb yozgan edi Xear, - tanlov prinsiplarini va standartlarning modifikatsiyasini qabul qilish vaziyatida qo'llanilishga yaxshi moslashgan” .

Mana shu muallifning boshqa vaziyatida, fikrimizcha, muallif tomonidan yangi yasalgan so'zlarning komponentlaridan birining – **le fil blanc** ishlatilishi ancha qiziqarli hisoblanadi:

*- Je t'apporte une tasse de bouillon, murmure Paule, qui vient d'entrer. Celle-là... Pourquoi donc a-t-elle trente-six ans, ces paupières fripées, **cette bobine de fil blanc** disperse dans les cheveux...?* [Hervé Bazin, Mort du petit cheval, p.23].

Oxirgi jumla savolni emas, balki achinishni ifodalaydi. Muallif xohishining pragmatik samarasi – achinishni ifodalash – kontekstual jihatdan bog'liq, chunki bu ko'chirma nutqiy aktda mulohazaning asl ma'nosi uning to'g'ri ma'nosi bilan mos kelmaydi.

Mashhur frazeologik birlik – **lancer la ligne** asosida yaratilgan, muallif tomonidan yangi yasalgan so'zlarning yana bir misolini keltiramiz:

Elle déplaît France-Soir, cote pile:

Le crime ne paie pas. Les amours célèbres. Puis retournant le journal, elle inspecta les gros titres, ajusta ses lunettes, les ôta, les remit ... Elle se ravisa, relança le harpon: « Excusez-moi, Daniel... Je me demande de quel bois vous êtes fait, vous, qui êtes encore jeune, pour rester solitaire? » [Hervé Bazin, L'huile sur le feu, p.26]

Relancer le harpon ning **lancer la ligne** o'rniga qo'llanilishi, romanning qahramonlaridan birini xarakterlab, mulohazaga katta ifodalilik bag'ishlaydi, bu ayol o'zining sobiq kuyovini "qari qiz bo'lib qolgan, erga tegmay o'tirib qolgan" o'zining kichik qiziga "uylantirishga" jon-jahdi bilan harakat qiladi. Mulohazaga **relancer le harpon** ning kiritilishi jumlaning pragmatikligini kuchaytiradi, chunki so'roq gapda eng anig'i endi yosh bo'lmagan yigitning oilaviy ahvoliga qo'shilmaslik, ma'qul deb topmaslik ifodalangan, leksik markerlar **de quel bois vous êtes fait,...vous êtes encore jeune** ham yosh yigitga kinoyali munosabatning samarasini kuchaytiradilar.

Muallif tomonidan yangi yasalgan so'zlarning yana birini quyidagi mulohazada ko'rib chiqamiz:

- Le père Donelle passait pour quelqu'un qui avait fait un nœud si serré aux cordons de sa bourse qu'il était difficile à defaire. [Elsa Triolet. Roses a credit, p.30]

O'zgaruvchan so'z birikmasi **faire nœud** ni frazeologizm **tenir les cordons de la bourse** "disposer de l'argent du ménage" frazeologik birligining ayrim komponentlari bilan birlashtirish, "u pul berishni yoqtirmaydi, ya'ni o'z hamyonini juda qattiq (mahkam) bog'lagan" degan mazmuni anglatuvchi **faire un nœud si serré aux cordons de sa bourse** mualliflik yangi hosilasini yaratishga olib keldi. Dialogik matnning ushbu mulohazasi o'z muallifiga ega (Donsert onajon) va suhbatdoshga (Martinaga) yo'naltirilgan. So'zlovchi nutq kommunikatsiyasida frazeologik yangi hosilani subyektiv-baholash modalligining vositasi sifatida (Donell otaning qurumsoqligiga ishora) o'z munosabatini eslatilgan shaxsga yetkazish maqsadida va bir vaqtning o'zida tinglovchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida har xil maqsadlarni ifodalash uchun qo'llaydi, ya'ni Martinaga Donell otaning yordamiga umid qilishga arzimaydi, u saxiylik qilishga ko'nadigan kishilardan emas. Demak, tahlil qilinayotgan vaziyatning mualliflik baholash (ma'qullamaslik, istamaslik, imkoniyatsizlik) va so'zlovchining maqsadlari (niyatlar) modal-pragmatik ma'lumotni hosil qiladilar va muloqotning vaziyatiga mos ravishda tanlovni va til vositalarining kombinatsiyasini oldindan belgilab beradigan kommunikativ omillarning asosiylaridan biri deb qaraladi.

Mutlaqo yangi bo'lgan mualliflik yangi hosilalari, hammaga ma'lum bo'lgan frazeologik birliklarning kutilmagan qayta o'zgartirishlari frazeologizmlarning transformatsiyali usullarining sonini to'ldiradilar hamda badiiy kommunikatsiyada pragmatik yo'naltirilganlikni ifodalashda asosiy rollardan birini o'ynaydilar.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кунин А.В. Замена компонентов фразеологизмов как стилистический прием // Иностранные языки в школе, 1977. - № 2. - С.3-12.
2. Соколова Г.Г. Составляющие коннотативного значения фразеологических единиц // Лингвистические проблемы перевода. - М., 1961. - С.54-61.
3. Bazin H. Vipère au poing. - La mort du petit cheval. - Cri de la chouette. - Moscou: "Progres", 1979. - 526 p.
4. Rat M. Dictionnaire des locutions françaises. – Paris , 1957
5. Le Petit Robert 1: Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française (Par P.Robert). - Paris, Le Robert, 1992. -2171

